



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	134
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
CHAKANA BANK XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	138
Asqarov Fayzullo G'iyosiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BILIM VA MALAKALARNI RAQAMLI BAHOLASH TIZIMINING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	148
Abdiyev Nosir Raximovich	
Muzaffarova Mohira Nuraliyevna	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA MOLIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	154
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDII RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSIY BAHOLASH	160
Omonova Nigora Bahodir qizi	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI	167
Iskandarov Xurshid Iskandarovich	
TEXNOLOGIK AVLOD ALMASHINISHI SHAROITIDA ALOQA KORXONALARI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINING QADRSIZLANISHINI HISOBGA OLISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Jamilov Jushqin Jonon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI ANFIS ASOSIDA MODELLASHTIRISH	181
Avazova Nafisa Namazovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH: O'ZSME-DDI MODULINING METODOLOGIYASI VA AMALIY JORIY ETISH MEXANIZMI	186
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	193
Kenjaeva Durdona Ravshan qizi	
ФАКТОРНЫЙ АНАЛИЗ КАК ИНСТРУМЕНТ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	198
Аюбов Ойбек Улугбек угли	
YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH	204
Raximov Sarvarbek Abdumutalibjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNI MOLIYALASHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI	211
Umarova Gulzodxon Qodirbekovna	



MEHMONXONA XO'JALIKLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL MEXANIZMI VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	216
Rahimov Hasan Abdusaitovich	
NOMODDIY AKTIVLAR BO'YICHA OSHKORALIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA MILLIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR BILAN UYG'UNLASHTIRISH.....	221
Ishankulov Izzatilla Nurillayevich	
SANOATLASHTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA UNUMDORLIK OMILI.....	226
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
INNOVATSION O'ZGARISHLAR ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING 2030-YILGACHA MO'LJALLANGAN PROGNOZ SSENARIYLARI VA ULARNING SEZGIRLIK TAHLILI	232
Amrullayev Dadaxon	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УЯЗВИМОСТИ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ И СТРУКТУРНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	237
Эркинбаева Камила Жавланбековна	
TIJORAT BANKLARI BIZNES MODELINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	243
Sh. Nurullayeva	
S. Narimonov	
OLIY TA'LIMDA RAQAMLI EKOTIZIMNI SHAKLLANTIRISHDAGI XAVF-XATARLAR (RISKLAR) VA BOSHQARUV MUAMMOLARI.....	249
Pirmanov Oxunjon Baxridin o'g'li	
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	256
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Хакимов Хафизбек Хамза угли	
Джумабаева Гаянэ Рахимовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOTRANSPORT XIZMATLARI BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI EKOLOGIK-IQTISODIY OMILLAR ASOSIDA OSHIRISH YO'LLARI	263
Sultanov Sulaymon Safarboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	269
Abdushukurova Mehribonu Dilmurod qizi	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH, YER RESURLARIDAN FOYDALANISH VA AHOLINING XARID QOBILIYATI MUVOFIQLIGINI BAHOLASH	276
Ramazonov Zafar Ulug'bekovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СТРАХОВОГО РЫНКА	281
Мирахмедова Мафтуна Ибрагимовна	
TIJORAT BANKLARIDA FOIZ SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AMALIY JIHATLARI.....	288
Orifova Dilnoza Obid qizi	
XALQARO KREDIT LINIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	295
Aliyev Bekzod Ilhomovich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ УЧЁТА И АНАЛИЗА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	301
Холикова Дурдона Бунёдjon кизи	



TOSHKENT VILOYATIDA ISHLAB CHIQUARISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HUDUDIIY DIFFERENSIATSIYASI.....	308
Salimov Burxoniddin	
IJTIMOIIY-IQTISODIIY ADOLATNI TA'MINLASHDA SINERGETIK YONDASHUV: ZANJIRLI ADOLAT KONSEPSIYASI.....	314
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
AQLLI SHAHAR TIZIMIDA IJTIMOIIY SOHA BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEXANIZMLARI.....	319
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QO'SHILGAN QIYMATNI TAQSIMLASHNING SAMARALI SOLIQ MEXANIZMIGA OID XORIJ TAJRIBALARI.....	326
A.A. Bobomurodov	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT" TIZIMIGA O'TISH ZARURIYATI VA XIZMATLAR SOHASI UCHUN IQTISODIIY AHAMIYATI.....	333
Y.M.Xalikov	
OLIIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	342
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li	
YOSHLARNING RAQAMLI MEHNAT PLATFORMALARIDA BARQAROR BANDLIGINI RISKKA ASOSLANGAN STRATEGIK BOSHQARISH.....	349
Palvonova Sevara Baxromovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	355
Almanov Ilhom Sultonovich	
MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARINI GEYMIKATSIYALASH ASOSIDA TA'LIM SIFATI VA IQTISODIIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH	362
Aslonova Rushano Ilxomovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIIY NATIJADORLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH.....	368
Tursunxo'jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi	
HUDUDLARNING IQTISODIIY RIVOJLANISHIDA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	374
Xolmatov Azamatjon Abdupattoyevich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКСПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭКСПОРТНОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ	380
Муниса Турдибаева	
LOYIHA MENEJERLARINING SOFT SKILLS KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING LOYIHALAR IQTISODIIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	394
Zairova Farida To'xtamurod qizi	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIIY KO'RSATKICHLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH.....	400
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	407
Jumaev Sohob Baxodirovich	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Jumaev Sohob Baxodirovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi raisi
E-mail: s.jumaev@tuit.uz
ORCID: 0009-0002-9225-5168

Annotatsiya. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqot iqtisodiy nazariyalarni qiyosiy tahlil qilish, tizimli yondashuv, kontent-tahlil hamda statistik tahlil metodlari asosida amalga oshirilgan. Raqamli iqtisodiyot kategoriyasining nazariy evolyutsiyasi D. Tapscott, N. Negroponte, E. Brynjolfsson, K. Schwab va C. Perez qarashlari asosida o'rganilib, raqamlashtirishning korxona samaradorligiga ta'sir etuvchi to'rtta asosiy mexanizmi — tranzaksion xarajatlarni qisqartirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, qaror qabul qilish sifatini yaxshilash hamda biznes modelini transformatsiya qilish — ajratib ko'rsatilgan. UNCTAD, McKinsey, Deloitte hamda BMT Taraqqiyot dasturi ma'lumotlari asosida raqamlashtirishning mehnat unumdorligiga ta'siri miqdoriy jihatdan baholangan. Korxonalarning raqamli yetuklik darajasini baholash uchun to'rt blokdan iborat ko'rsatkichlar tizimi taklif etilgan hamda uni O'zbekiston sharoitida qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, korxona samaradorligi, raqamli transformatsiya, tranzaksion xarajatlar, dinamik qobiliyatlar, Solou paradoksi, mehnat unumdorligi, raqamli yetuklik, "Raqamli O'zbekiston — 2030", uslubiy yondashuv.

Аннотация. Исследованы теоретико-методологические основы повышения эффективности деятельности предприятий в условиях цифровой экономики. Исследование проведено на основе сравнительного анализа экономических теорий, системного подхода, контент-анализа и статистического анализа. Теоретическая эволюция категории «цифровая экономика» рассмотрена на основе взглядов Д. Тапскотта, Н. Негропонта, Э. Бриньольфсона, К. Шваба и К. Переса. Выделены четыре основных механизма влияния цифровизации на эффективность деятельности предприятий — сокращение транзакционных издержек, повышение эффективности использования ресурсов, улучшение качества принятия решений и трансформация бизнес-модели. На основе данных ЮНКТАД, McKinsey, Deloitte и ПРООН количественно оценено влияние цифровизации на производительность труда. Предложена четырёхблочная система показателей для оценки уровня цифровой зрелости предприятий и разработаны методические рекомендации по её применению в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: цифровая экономика, эффективность предприятия, цифровая трансформация, транзакционные издержки, динамические способности, парадокс Солоу, производительность труда, цифровая зрелость, «Цифровой Узбекистан — 2030», методический подход.

Abstract. The theoretical and methodological foundations for improving enterprise performance in the context of the digital economy are examined. The study is based on a comparative analysis of economic theories, a systems approach, content analysis, and statistical analysis. The theoretical evolution of the concept of the digital economy is explored through the perspectives of D. Tapscott, N. Negroponte, E. Brynjolfsson, K. Schwab, and C. Perez. Four key mechanisms through which digitalisation influences enterprise performance are identified: reducing transaction costs, increasing resource utilisation efficiency, improving the quality of decision-making, and transforming business models. Drawing on data from UNCTAD, McKinsey, Deloitte, and UNDP, the impact of digitalisation on labour productivity is quantitatively assessed. A four-block system of indicators for assessing the digital maturity of enterprises is proposed, along with methodological recommendations for its application in Uzbekistan.

Keywords: digital economy, enterprise performance, digital transformation, transaction costs, dynamic capabilities, Solow paradox, labour productivity, digital maturity, "Digital Uzbekistan — 2030", methodological approach.



KIRISH

Jahon iqtisodiyotining so'nggi o'n yillikdagi rivojlanishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol jarayonlariga chuqur singib borishi bilan tavsiflanadi. Forrester tadqiqot kompaniyasining bahosiga ko'ra, 2028-yilga borib raqamli iqtisodiyot hajmi 16,5 trln AQSh dollariga yetib, jahon yalpi ichki mahsulotining 17 foizini tashkil etadi [1]. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, keng polosali internet qamrovining har 10 foizga oshishi mamlakat YalMining 0,25 foizga o'sishiga olib keladi [2]. Bu ko'rsatkichlar raqamlashtirishning shunchaki texnologik yangilanish emas, balki iqtisodiy o'sishning mustaqil omiliga aylanganini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasida ushbu jarayon davlat siyosati darajasida institutsionallashtirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son¹ qarori bilan raqamli iqtisodiyotning YalMdagi ulushini ikki barobar oshirish vazifasi qo'yilgan [3], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son² Farmoni bilan esa "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi tasdiqlanib, unda raqamli infratuzilma, raqamli hukumat, raqamli iqtisodiyot va milliy AT-bozorni rivojlantirishning oltita ustuvor yo'nalishi belgilangan [4]. Strategiyani amalga oshirish uchun 2,5 mlrd AQSh dollari miqdorida investitsiya rejalashtirilgan [5, 18-b.].

Shu bilan birga, davlat darajasidagi raqamlashtirish siyosati va mikrodarajadagi, ya'ni korxona darajasidagi iqtisodiy samara o'rtasidagi bog'liqlikni yanada tizimlashtirish zarurati mavjud. Amaliyotda korxonalarda axborot texnologiyalariga sarflangan mablag'larning iqtisodiy natijalarini aniq baholash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Deloitte tadqiqotining ko'rsatishicha, texnologiyaga qilingan investitsiyalarning natijaviyligini 80 foizdan ortiq ko'rsatkich bo'yicha o'lchaydigan tashkilotlarda kutilgan qiymatni olish ehtimoli 22 foiz punktga yuqori bo'ladi [6]. Demak, texnologiyalar samaradorligini oshirishda ularni baholashning mukammal uslubiy asoslarini shakllantirish alohida ahamiyatga ega.

Maqolaning maqsadi — raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini tizimlashtirish, raqamlashtirishning samaradorlikka ta'sir etuvchi uzatish mexanizmlarini aniqlash hamda milliy sharoitga moslashtirilgan uslubiy baholash yondashuvini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Raqamli iqtisodiyot" tushunchasi ilmiy muomalaga D. Tapskottning 1995-yilda nashr etilgan "The Digital Economy" asari bilan kirgan bo'lib, unda tarmoqli aqlga asoslangan yangi iqtisodiy tartib tavsiflanadi [7]. Deyarli bir vaqtda N. Negroponte "atomlardan bitlarga" o'tish g'oyasini ilgari surdi [8]. Keyingi bosqichda E. Brinyolfson va E. Makafi raqamli texnologiyalarning mehnat unumdorligiga ta'sirini empirik jihatdan asoslab, "ikkinchi mashina asri" konsepsiyasini shakllantirdilar [9; 10]. K. Shvab bu jarayonlarni to'rtinchi sanoat inqilobi doirasida umumlashtirdi [11], K. Peres esa texnologik-iqtisodiy paradigmalar almashinuvi nazariyasi orqali raqamli inqilobning tarixiy o'rnini asosladi [12].

Korxona darajasidagi samaradorlik masalasi klassik institutsional va strategik nazariyalarga tayanadi. R. Kouzning firma tabiati haqidagi ishi [13] va O. Uilyamsonning tranzaksion xarajatlar nazariyasi [14] raqamlashtirishning izlash, muzokara va nazorat xarajatlarini kamaytirish orqali samaradorlikka ta'sirini tushuntirish imkonini beradi. J. Barnining resurslarga asoslangan yondashuvi [15] va D. Tisning dinamik qobiliyatlar konsepsiyasi [16] esa raqamli aktivlar va ma'lumotlarni raqobat ustunligining barqaror manbai sifatida talqin qilish uchun nazariy asos yaratadi. P. Romerning endogen texnologik o'zgarish modeli [17] bilimning nokonkurent tabiatini asoslab, raqamli mahsulotlarning miqyoslashuv iqtisodini izohlaydi.

Mahalliy va MDH mamlakatlari adabiyotida raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslari B.A. Begalov [18], G.G. Golovenchik va M.M. Kovalev [19], V.D. Markova [20] tadqiqotlarida yoritilgan. Ayni paytda mavjud tadqiqotlarda raqamlashtirish, asosan, makroiqtisodiy yoki tarmoq darajasida tahlil qilingan bo'lib, korxona samaradorligiga ta'sir etuvchi uzatish mexanizmlarini yaxlit tizim sifatida yanada kengroq tadqiq etish imkoniyatlari mavjud. Mazkur yo'nalish ushbu maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimlilik, obyektivlik va tarixiylik tamoyillariga tayangan holda nazariyalarni qiyosiy tahlil qilish, tizimli-strukturaviy yondashuv, kontent-tahlil, statistik guruhlash hamda induktiv umumlashtirish metodlaridan

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4800657>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-5030957>



foydalanildi. Empirik baza sifatida UNCTAD, Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi, McKinsey & Company va Deloitte hisobotlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot kategoriyasining nazariy evolyutsiyasi. Nazariy manbalarni qiyosiy tahlil qilish “raqamli iqtisodiyot” tushunchasining talqini kamida uch bosqichda o'zgarganini ko'rsatadi. Dastlabki bosqichda (1995–2005-yillar) u, asosan, elektron tijorat va internet-biznes bilan tenglashtirilgan; ikkinchi bosqichda (2006–2015-yillar) platforma iqtisodiyoti, tarmoq samarasi va ma'lumotlar iqtisodiyoti masalalari birinchi o'ringa chiqqan; uchinchi bosqichda (2016-yildan hozirgacha) esa sun'iy intellekt, bulutli hisoblash va Sanoat 4.0 texnologiyalari orqali ishlab chiqarish funksiyasining o'zi qayta shakllanayotgani e'tirof etilmoqda. Ushbu evolyutsiya 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Raqamli iqtisodiyot nazariyasining rivojlanish bosqichlari va korxona samaradorligini talqin qilish³

Bosqich	Yillar	Nazariy o'zak	Samaradorlik talqini	Asosiy vakillari
I. Axborotlashtirish	1995–2005	Axborotning atomdan bitga o'tishi; elektron tijorat	Amaliyot xarajatlarini kamaytirish, savdo kanallarini kengaytirish	D. Tapskott, N. Negroponte
II. Platformalashuv	2006–2015	Tarmoq samarasi, ikki tomonlama bozorlar, ma'lumotlar aktivi	Miqyos va qamrov iqtisodini oshirish; tranzaksion xarajatlarni qisqartirish	E. Brinyolfson, K. Peres
III. Intellektuallashuv	2016-yildan	Sun'iy intellekt, bulutli hisoblash, Sanoat 4.0, kiber-fizik tizimlar	Ishlab chiqarish funksiyasining qayta shakllanishi; dinamik qobiliyatlar orqali qiymat yaratish	K. Shvab, E. Makafi, D. Tis

Korxona samaradorligining raqamli sharoitdagi mazmuni. An'anaviy iqtisodiy tahlilda korxona samaradorligi natija va sarf nisbati sifatida o'lchanadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bu nisbatning ikkala tarkibiy qismi ham o'zgaradi. Birinchidan, sarflar tarkibida moddiy aktivlar ulushi kamayib, nomoddiy aktivlar — dasturiy ta'minot, ma'lumotlar bazasi, kompetensiyalar — ulushi ortadi. Ikkinchidan, natija faqat mahsulot hajmi bilan emas, balki bozorga chiqish tezligi, mijozga moslashuvchanlik darajasi va tizimning uzluksizligi bilan ham baholanadi. Shu bois raqamli sharoitda samaradorlikni yagona ko'rsatkich bilan emas, balki ko'p o'lchovli ko'rsatkichlar tizimi orqali baholash talab etiladi.

Raqamlashtirishning samaradorlikka ta'sir etuvchi uzatish mexanizmlari. Tadqiqot natijalari raqamlashtirishning korxona samaradorligiga ta'siri to'rtta asosiy kanal orqali amalga oshirishini ko'rsatdi. Ushbu kanallar bir-birini istisno qilmaydi, aksincha, o'zaro kuchaytiruvchi ta'sirga ega (2-jadval).

2-jadval

Raqamlashtirishning korxona samaradorligiga ta'sir etish mexanizmlari⁴

Uzatish kanali	Nazariy asos	Amaliy namoyon bo'lishi	Miqdoriy baho
Tranzaksion xarajatlarni qisqartirish	R. Kouz (1937), O. Uilyamson (1985)	Elektron hujjat aylanishi, avtomatlashtirilgan xaridlar, elektron shartnomalar	Ma'muriy jarayonlar vaqtining sezilarli qisqarishi; hujjatlar bilan ishlash vaqtining 40 foizgacha kamayishi [21]
Resurslardan foydalanish darajasini oshirish	Miqyos iqtisodi, P. Romer (1990)	Uskunalar holatini monitoring qilish, prognozli texnik xizmat ko'rsatish	Uskunalarining to'xtab qolishi 30–50 foizga kamayishi; ishlab chiqarish o'tkazuvchanligining 10–30 foizga o'sishi [22]
Qaror qabul qilish sifatini yaxshilash	Dinamik qobiliyatlar, D. Tis (1997)	Katta ma'lumotlar tahlili, talabni prognozlash, boshqaruv hisoboti	Prognozlash aniqligining 85 foiz darajasiga yetishi [22]
Biznes modelini transformatsiya qilish	K. Peres (2002), K. Shvab (2016)	Platforma modeli, obuna asosidagi xizmatlar, ekotizimga integratsiya	Mehnat unumdorligining 15–30 foizga o'sishi [22]; qiymatning asosiy qismi innovatsion o'sish hisobiga [23]

³ Manba: nazariy manbalar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁴ Manba: nazariy manbalar va xalqaro konsalting hisobotlari tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Solou paradoksi va samaraning vaqt lagi. Raqamlashtirish samaradorligini baholashda 1987-yilda R. Solou tomonidan ifodalangan paradoksni — kompyuter asrini hamma joyda ko'rish mumkinligi, biroq uni unumdorlik statistikasida ko'rish qiyinligini — hisobga olish zarur [24]. Zamonaviy tadqiqotlarda ushbu hodisa axborot texnologiyalariga qilingan investitsiyalar samarasi darhol emas, balki tashkiliy jarayonlar, xodimlar malakasi va boshqaruv tizimi moslashganidan so'ng namoyon bo'lishi bilan izohlanadi. Empirik baholashlarga ko'ra, raqamli transformatsiyaning moliyaviy natijaga ta'siri o'rtacha bir-ikki yillik kechikish bilan yuzaga chiqadi [25]. Bu holat korxona darajasida raqamlashtirish loyihalarini baholashda qisqa muddatli emas, balki kamida uch yillik gorizontdan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

O'zbekiston korxonalarida raqamlashtirishning holati. Milliy sharoitda raqamli transformatsiya sur'atlari yuqori bo'lib, korxona darajasidagi qamrovni yanada kengaytirish imkoniyatlari mavjud. BMT Taraqqiyot dasturining 2025-yilgi tadqiqotiga ko'ra, 2023-yilda AKT sektorining YalMdagi ulushi 2,1 foizni tashkil etgan, sohada band aholi soni 87,8 ming kishiga yetgan, AKT eksporti esa 344 mln AQSh dollarini tashkil etib, bir yil ichida ikki barobardan ortiq oshgan [5, 12–15-b.]. Shu bilan birga, rasmiy ro'yxatdan o'tgan xususiy firmalarning 26 foizi o'z veb-saytiga ega, dasturiy ta'minotga sarflanadigan xarajatlarning YalMdagi ulushi 0,2 foizni tashkil etadi, kompaniyalarning 62 foizida esa AT-mutaxassislarini jalb etish imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurati mavjud [5, 21–24-b.]. Ushbu ma'lumotlar raqamlashtirish samaradorligini yanada oshirishda inson kapitalini rivojlantirish va tashkiliy tayyorgarlik darajasini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Samaradorlikni baholashning uslubiy modeli. Yuqoridagi tahlil asosida korxonaning raqamli yetukligi va undan olinadigan iqtisodiy samarani baholashning to'rt blokli ko'rsatkichlar tizimi taklif etiladi. Tizimning o'ziga xosligi shundaki, u faqat texnologik jihozlanishni emas, balki tashkiliy tayyorgarlik va moliyaviy natijani bir vaqtda qamrab oladi hamda vaqt lagini hisobga olish imkonini beradi (3-jadval).

3-jadval
Korxonaning raqamli yetukligi va iqtisodiy samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimi⁵

Blok	Ko'rsatkichlar	Hisoblash mazmuni	Baholash davri
I. Texnologik baza	Raqamli aktivlar ulushi; bulutli xizmatlardan foydalanish darajasi; avtomatlashtirilgan jarayonlar ulushi	Nomoddiy va AT-aktivlarning umumiy aktivlardagi ulushi; avtomatlashtirilgan biznes-jarayonlar soni nisbati	Yillik
II. Tashkiliy tayyorgarlik	AT-kompetensiyaga ega xodimlar ulushi; raqamli malaka oshirish xarajatlari; raqamli strategiyaning mavjudligi	Malakali xodimlar soni / umumiy xodimlar soni; o'qitish xarajatlari / mehnat xarajatlari	Yillik
III. Jarayon samaradorligi	Bir tranzaksiyaga sarf; buyurtmani bajarish muddati; uskunalarining to'xtab qolish vaqti; prognoz aniqligi	Ma'muriy xarajatlar / tranzaksiyalar soni; o'rtacha sikl davomiyligi	Choraklik
IV. Moliyaviy natija	Mehnat unumdorligi; AT-investitsiyalar rentabelligi (ROI); operatsion xarajatlar ulushi; EBITDA marjasi	Sof tushum / xodimlar soni; qo'shimcha foyda / AT-investitsiya	Yillik, uch yillik gorizontda

Taklif etilayotgan tizimning amaliy qiymati shundaki, u korxonaga raqamlashtirish jarayonining qaysi bosqichida qo'shimcha takomillashtirish zarurligini aniqlash imkonini beradi. Agar I blok ko'rsatkichlari yuqori, ammo III va IV blok ko'rsatkichlari nisbatan past bo'lsa, bu texnologik bazani tashkiliy moslashuv bilan yanada uyg'unlashtirish zarurligini bildiradi. Bu esa Solou paradoksining korxona darajasidagi namoyon bo'lishini ifodalaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy-uslubiy tahlil quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, "raqamli iqtisodiyot" kategoriyasi o'z taraqqiyotida kamida uch bosqichni bosib o'tgan bo'lib, har bir bosqichda korxona samaradorligining talqini ham o'zgargan: xarajatlarni qisqartirishdan miqyos iqtisodiga, undan esa dinamik qobiliyatlar orqali qiymat yaratishga qarab siljigan.

Ikkinchidan, raqamlashtirishning korxona samaradorligiga ta'siri to'rtta uzatish kanali — tranzaksion xarajatlarni qisqartirish, resurslardan foydalanish darajasini oshirish, qaror qabul qilish sifatini yaxshilash va biznes modelini transformatsiya qilish — orqali amalga oshadi. Xalqaro baholashlarga ko'ra, ushbu kanallar birgalikda mehnat unumdorligining 15–30 foizga oshirishini va uskunalarining to'xtab qolish vaqtining 30–50 foizga qisqarishini ta'minlashi mumkin.

5 Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Uchinchidan, raqamli investitsiyalarning iqtisodiy samarasi vaqt lagi bilan namoyon bo'ladi. Shu bois baholashni yillik emas, balki kamida uch yillik gorizontda olib borish hamda texnologik jihozlanish bilan bir qatorda tashkiliy tayyorgarlikni ham baholash maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchidan, muallif tomonidan taklif etilgan to'rt blokli ko'rsatkichlar tizimi korxonaning raqamli yetukligini kompleks baholash va raqamlashtirish jarayonida takomillashtirish zarur bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash imkonini beradi. Keyingi tadqiqotlarda ushbu tizimni O'zbekiston sanoat va xizmat ko'rsatish korxonalarining empirik ma'lumotlari asosida aprobatsiyadan o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Forrester Research. *The Global Digital Economy Will Reach \$16.5 Trillion and Capture 17% of Global GDP by 2028*. – Cambridge, MA, 2024. – URL: Forrester Research.
2. World Bank. *Sustainable Development of Digital Economy: Speech*. – Washington, D.C., 2024. – 21 November. – URL: World Bank.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: Lex.uz.
5. UNDP. *Digital Economy of Uzbekistan: The State of Digital Entrepreneurship and Artificial Intelligence*. – Tashkent: United Nations Development Programme, 2025. – URL: UNDP Uzbekistan.
6. Deloitte Insights. *Where Are Organizations Getting the Most ROI from Tech Investments?* – Deloitte Development LLC, 2024.
7. Tapscott D. *The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*. – New York: McGraw-Hill, 1995. – 368 p.
8. Negroponte N. *Being Digital*. – New York: Alfred A. Knopf, 1995. – 243 p.
9. Brynjolfsson E., McAfee A. *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. – New York; London: W. W. Norton & Company, 2014.
10. McAfee A., Brynjolfsson E. *Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future*. – New York; London: W. W. Norton & Company, 2017. – 416 p.
11. Schwab K. *The Fourth Industrial Revolution*. – Geneva: World Economic Forum, 2016. – 172 p.
12. Perez C. *Technological Revolutions and Financial Capital: The Dynamics of Bubbles and Golden Ages*. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2002.
13. Coase R. H. The Nature of the Firm // *Economica*. – 1937. – Vol. 4, No. 16. – P. 386–405.
14. Williamson O. E. *The Economic Institutions of Capitalism: Firms, Markets, Relational Contracting*. – New York: The Free Press, 1985.
15. Barney J. B. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage // *Journal of Management*. – 1991. – Vol. 17, No. 1. – P. 99–120.
16. Teece D. J., Pisano G., Shuen A. Dynamic Capabilities and Strategic Management // *Strategic Management Journal*. – 1997. – Vol. 18, No. 7. – P. 509–533.
17. Romer P. M. Endogenous Technological Change // *Journal of Political Economy*. – 1990. – Vol. 98, No. 5, Part 2. – P. S71–S102.
18. Бегалов Б. А., Абдуллаев М. Рақамли иқтисодиёт: дарслик. – Тошкент: Тошкент давлат иқтисодиёт университети, 2023. – 365 б.
19. Головенчик Г. Г., Ковалев М. М. *Цифровая экономика*. – Минск: Издательский центр БГУ, 2019. – 395 с.
20. Маркова В. Д. *Цифровая экономика: учебник*. – М.: ИНФРА-М, 2020. – 186 с.
21. Deutsche Bank. *Cloud and Innovation Partnership: Progress Report*. – Frankfurt am Main, 2025.
22. McKinsey & Company. *Capturing the True Value of Industry 4.0*. – 2022. – 13 April. – URL: McKinsey & Company.
23. McKinsey & Company. *Projecting the Global Value of Cloud: \$3 Trillion Is Up for Grabs*. – 2022. – 28 November. – URL: McKinsey & Company.
24. Solow R. M. We'd Better Watch Out // *New York Times Book Review*. – 1987. – 12 July. – P. 36.
25. Саттикулова Г., Тургунов А. Влияние цифровой трансформации на прибыльность и экономическую эффективность предприятий // *Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari*. – 2026. – Т. 6, № 2. – С. 194–201.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>